

# **Keksa yoshdagi yo‘lovchilar aviachiptalariga 25% chegirma**

**2021 5 Noyabr**

Noyabr oyi “Keksa yoshdagilar uchun sayohat oyligi” deb e‘lon qilinganligi munosabati bilan «Uzbekistan Airways» AJ 2021-yilning 1-noyabridan boshlab 30-noyabriga qadar amalga oshiriladigan barcha ichki aviaqatnovlari uchun iqtisod klass aviachiptalarining amaldagi narxiga 25 foizli maxsus chegirmalarni kiritmoqda. Bunday chegirma 60 yoshdan oshgan erkaklar hamda 55 yoshdan oshgan ayollar uchun amal qiladi. Aviachipta xarid qilib olayotgan vaqtda yoningizda albatta pasport bo‘lishi lozim.

Chegirma faqat chiptalarni sotish punktlari: Uzbekistan Airways Sales filiali yoki aviakompaniya agentlari tomonidan taqdim etiladi.

Telegram: [t.me/uzbekistanairways](https://t.me/uzbekistanairways)